

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

KOMYOB IJODIDA YASSAVIYLIKKA BO'LGAN MUNOSABAT

Jo'rayev Jamoliddin Aminjonovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, professor (DSc).

e-mail: annora1976@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2337-5767>

Annotatsiya.

Maqolada Sayyid Homid to'ra Komyobning g'azalari tahlilga tortilgan. Shoirning tasavvufiy she'rlarida an'anaviy tarzda Haqqa yetishish, uning jamolini ko'rishga musharraf bo'lish motivlarini kuzatish mumkin. Buning uchun u may, mutrib, mayxona, mug'bacha singari tasavvufiy istilohlardan foydalanganligi kuzatiladi. Tahlilda shoirning yassaviya tariqatiga e'tiqodi va o'ziga xos uslubi o'rganilgan. Uning ijodida Yassaviy g'oyalari bilan uyg'unlik borligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: shoir, yassaviya, tariqat, tasavvuf, ijod, g'oya, izdosh, Xiva.

ОТНОШЕНИЕ К ЯСАВИЗМУ В ТВОРЧЕСТВЕ КОМЁБА

Жураев Жамолиддин Аминжонович

Джизакский государственный педагогический университет, профессор (DSc).

Аннотация.

В статье анализируются стихотворения Сайида Хомида Тора Комёба. В мистических стихотворениях поэта прослеживаются мотивы достижения Истины традиционным путем, возможности увидеть ее красоту. Замечено, что для этого он использовал мистические термины, такие как май, мутриб, майхана, мугбача. Анализируется вера поэта в секту Ясавия и его уникальный стиль. В его работе есть гармония с идеями Ясави.

Ключевые слова: поэт, ясавия, секта, мистика, творчество, идея, последователь, Хива.

THE ATTITUDE TOWARD YASAWISM IN THE WORKS OF KOMYOB

Jo'rayev Jamoliddin Aminjonovich

Jizzakh State Pedagogical University, Professor (DSc).

Abstract.

The article analyzes the poems of Sayyid Homid Tora Komyob. In the poet's mystical poems one can observe the motives of reaching the Truth in the traditional way, of being able to see its beauty. It is observed that for this he used mystical terms such as may, mutrib, maykhana, mugbacha. The analysis examines the poet's belief in the Yassaviya sect and his unique style. There is a harmony in his work with Yassavi's ideas.

Keywords: poet, yassaviya, sect, mysticism, creation, idea, follower, Khiva.

Kirish. Sayid Homid to'ra ibn Sayid Muhammadxon to'ra shoirning to'liq ismi, Komyob (1862–1926/30) uning adabiy taxallusidir. U Xivadagi Ko'hna Arkda, Xiva xoni Sayid Muhammadxon to'ra xonadonida tavallud topgan. Komyobdan bizgacha she'rlar devoni, **“Tavorix ul-xavonin”** va **“Muntaxab ul-voqeot”** asarlari yetib kelgan.

Komyob Xiva xoni Sayid Muhammadxonning olti o'g'lining beshinchisi bo'lgan. Birinchisi — Muhammad Rahimxon — Feruz, ikkinchisi — Sayid Ahmad to'ra, uchinchisi — To'ramurod to'ra, to'rtinchisi — Allohyor to'ra va oltinchisi — Davlatyor to'ra. Bobojon Tarrohning keltirishicha, Sayid Muhammadxonning yana Chinijonbika ismli qizi ham bo'lgan [1:42].

Olti o'g'il uch onadan tug'ilgan bo'lib, ularning ichida Sayid Homid to'raning bir o'zi bir onadan tug'ilgan. Uning yozishicha, bir onadan yolg'iz o'zi bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, otasi aka-ukalariga qaraganda unga ko'proq e'tiborini qaratgan.

D. Rahim va Sh. Matrasullar Sayid Homid to'raning otasi Sayid Muhammadxon shajarasi sayidlar avlodidan bo'lgan Sayid atoning o'g'li Sayid Ja'far Musofiriyga ulanishini aytgan. Lekin, o'sha o'rinda Musofiriyga oid batafsil ma'lumot berilmaydi [2:112].

Musofiriy degan shaxs to'g'risidagi muxtasar xabarga Ali Safiyning **“Rashahoti ayn ul-hayot”**ida duch kelamiz. Muallif Musofiriyning ismi va kimning avlodidanligini ko'rsatmagan holda xorazmlik ekanligi, Bahouddin Naqshbandning yaqin shogirdlaridan biri bo'lganligini yozish bilan cheklangan [3:34-b.]. Shu bois bu to'g'rida boshqa so'z deyish mushkul.

Komyob o'zi **“Tavorix ul-xavonin”**ning **“Qo'ng'iro't podshohlarining va ularning avlodlarining zikri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Sayid ato va uning o'g'li Horun mirzo to'g'risida gapirib, ularni ham ajdodlari qatorida tilga

olib o'tadi. Shuningdek, ***"Muntaxab ul-voqeot"***da otalarining onalari Sayid Ubaydullo eshon Hazoraspiy va uning otalari Xoja Sayid Boqir eshon bo'lib, Sayid Ahmad ato avlodlaridan ekanligi qayd etilgan. Yana o'sha o'rinda yozilishicha, onasining otasi qo'ng'iroq urug'iga mansub beklardan bo'lgan Shohniyozbek va uning otasi esa Shayxnazarbekdir [4:280-a.].

Sayid Homid to'ra ***"Muntaxab ul-voqeot"***da ham o'zining yassaviya tariqatiga munosabatini quyidagicha izhor qilgan:

...Yo pirim Xoja Ahmad, qil madad ahvolima,
Yo'qsa shayton mulki aqlim solda turktoz.
Yo pirim Hakim ato, yo pirim Sayid ato,
Aylab altoflar eting, so'fi maloz. (3730/II, 22-b. varaq hoshiya)

Komyob asarlaridagi qaydlarga ko'ra, o'z davrida Xorazmda mavjud bo'lgan barcha tasavvufiy tariqat vakillari bilan doimiy muloqotda bo'lib turganligi, fikrlaridan oziqlanganligi, ayni chog'da uning yassaviya tariqatiga e'tiqodi ko'proq ekanligi oydinlashadi. Shoirning mazkur tariqatga bo'lgan e'tiqodi, eng avvalo, shajaraviy tomondan otasi Sayid Muhammadxonning onasi yassaviya shayxlaridan Sayid Ahmad ato avlodi bo'lganligi bilan bog'liq, deb o'ylaymiz.

Hasanmurod Laffasiyning **"Xiva shoirlari va adabiyotshunoslari tarjimai holi"** asarida shunday deyiladi: **"Ammo, Komyob yozg'on she'rlari zohiran ishq-muhabbatdin bo'lsa-da, haqiqat ma'nida bir daryoyi muhitdek. Ilm g'avvoslari andin minglarcha ma'ni hosil etib, duru javohir hosil qilur erdilar. Komyob akasi Feruz Muhammad Rahimxonning vuzaro, umaro, amaldorlaridin ancha xushnud bo'lmay, dog'i alarning jabr-zulmlaridin shikoyatlar qilib turar erdi."**

Darhaqiqat, Komyobning tasavvufiy she'rlarining asosini kuzatadigan bo'lsak, ularda an'anaviy tarzda Haqqa yetishish, uning jamolini ko'rishga musharraf bo'lish motivlarini kuzatish mumkin. Buning uchun u may, mutrib, mayxona, mug'bacha singari tasavvufiy istilohlardan foydalangan. Shuni ham qayd etib o'tish o'rinli, shoirning yassaviya tariqatiga e'tiqodi bo'lsa ham, asarlarida Yassaviy va uning izdoshlari ijodiga xos hikmat uslubining ta'siri sezilmaydi. Lekin, Yassaviy g'oyalari bilan uyg'unlik ko'zga tashlanadi. Jumladan, Yassaviy:

Ishq yo'lida kecha-kunduz yig'lag'onlar,
Jondin kechib belin mahkam bog'lag'onlar,
Xizmat qilib Haq sirini anglag'onlar,
Tun uyqusin harom qilib nolon bo'lur, –

deb yozadi. Yassaviyshunos I. Haqqulov misralar mazmunini quyidagicha sharhlaydi: **"(Yuqoridagi she'r nazarda tutilmoqda – J. J.) kabi poetik e'tiroflarida Allohni tanish va uning ishqini idrok qilish ehtirosalarida o'rtangan oshiqlarni nazarda tutgan. U shu oshiqlarga "ishq sirini bayon" qiladi. Bu sirning mushohadasiga berilgan oshiq, avvalo, "haqiqat ma'nosiga yetishgan kishi". U "kecha-kunduz ishq" istaydi. "Bir soat ham Haq yodidan g'ofil"lik yo'q unda. U imonda sobit. Uningcha, "Tan so'zlamas, jon so'zlamas, imon so'zlar" [6:8]. Komyob:**

Ey ko'ngil, zuhd ahlidan deb urma lof,
Lof ursang, bu so'zing asru gazof,

matlasi bilan boshlanadigan g'azalida ushbu fikrni rivojlantirib, zuhd yo'lga kirib, bu yo'lda sobitqadam bo'lolmayotgan, ayni chog'da o'zini taqvorod deb hisoblaydigan zohidlarni tanqid tig'i ostiga olib, ilohiy ishq yo'lida qat'iy bo'lishga chaqirgan:

Kecha-kun g'aflat bila umr o'tkarib,
Qilmading nafsing bila bir dam maof.
Nafsing ro'yicha tokay ish etib,
Zuhd ishiga aylamassan e'tirof.
Ko'ngling uyin fisqu isyon yomg'iri,
Aylamish to'sh-to'shidin, bilkul shikof.
Kechalar bedor, saharlar uyqulabon,
Dersan, zuhd ichraman ko'ngli sof. [5:62].

Allohga yetish yo'lga kirgan oshiq o'z maqsadiga yetishmoq uchun mashaqqatlarga bardoshli bo'lmog'i lozim. Maqsad yo'lidagi yuzlab to'siqlarni oshib o'tish kerak. Ana shunday to'siqlardan mardona o'ta olgan oshiq o'z muhabbatida sobit bo'ladi, ishq lazzatini totadi. Shoirning mana bu misralarida lirik qahramon — oshiq ko'zlangan manzil sari intilar ekan, o'zini to'siqlarni bartaraf etishga chog'laydi:

Ohkim, boshimda ishq, ko'nglumda yuz dardu alam,
Kechkusidur bu sifat ohu malomat birla hayf.
Komyob oshiq deding, ham ishrat iyodat qilmayin,
Umring o'tkarding, bu yanglig' xobi g'aflat birla hayf.

Bu misralarda shoir, shuningdek, "ko'ngildagi dardu alamlar"dan qutulmoq, maqsadga yetishning chorasi deb "ishrat iyodat qilish"***ni biladi. Ishrat iyodat qilishdan murod — may ichishdir. She'r mazmuniga ko'ra, ishrat qilish bilan yor vasliga yaqinlashish mumkin. Shu bois, ishrat tuzish, may — boda ichish shoir she'riyatida yor vasliga yetishtiruvchi vositalar sifatida talqin etiladi.

Bu fikrning izchil bayoni yetti baytdan iborat quyidagi g'azalda mana bunday ifodalangan:
Soqiyo, gul chog'idur, qo'lg'a olib gulgun may,

Yor ila no'sh aylayin, tut uzmayin bir lahza may.
Ishrat etmak vaqtidir bo'ston aro do'ston ila,
Mutribi xushlahn ila tanburu daf ham bo'lsa may.
Xilvat aylab go'shai gulshanda, ey dil, shodkom,
Manu yoru may bo'lub, bo'lmasa onda o'zga kay.
Yaxshidur ayyomi gul, yoz ichra ondin qil qiyos,
Kom oldi bo'lg'usi olamg'a farahbaxsh vaqti may.

G'azalning dastlabki to'rt baytida lirik qahramon soqiyga murojaat etib, gul chog'i ekanligi, bahor, ya'ni uyg'onish faslida yoru do'stlar bilan may ichmoq uchun yaxshi fursat ekanligini bildiradi. Yana uning aytishicha, ayni shu paytda yor bilan birga may ichish eng ma'qul davr.

Keyingi — beshinchi baytda shoir-lirik qahramon mayu may ichish mavsumidan muddaosi nima ekanligini ochiq bayon qilishga kirishadi:

Maydin maqsud: zikri yordur — yodi Haq,
Mavsumi guldin murod: vaqti sahardin topsa shay. [5:96].
Komyob bu bayt orqali Navoiyning:
Sen gumon qilg'ondin o'zga jomi may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma, bu mayxona ahlin, zohido! [7:8-b.]

deb yozgan misralaridagi talqinni ilgari suradi. U ham Navoiy singari may va gul chog'ini zikr qilishdan murod boshqa ekanligini uqtirmoqda. She'rda yozilganidek, may ichish chog'i — Haq yodi, gul chog'i — bahor esa, sahar vaqtidir. Allohga ibodat qilib, undan ezgu tilaklarni tilash uchun eng maqbul payt sahar vaqti hisoblanadi. Shoirning sahar vaqtini gul chog'i — bahorga, daraxt va o'simliklarning gullash paytiga qiyoslashiga sabab shuki, bu paytda daraxtlar qanchalik gullashiga qarab beradigan mevasini chamalash mumkin bo'ladi.

Shoir ko'rib o'tilgan g'azaldagidek ****"ishrat tuzmoq"****ni hamma o'rinda ham tasavvufiy istiloh sifatida qo'llayvermaydi. Ayrim hollarda mazkur istilohni voqe hayotdagi aysh-ishrat ma'nolarida istifoda etgan misralarga ham duch kelamiz. Xususan, shoir **"O'tdi umrim toat etmay fikri ishrat birla hayf"** misrasi bilan boshlanadigan g'azalining keltirilgan misrasida zuhdu taqvo bilan mashg'ul bo'lmay, nafs domiga giriftorligidan o'ziga malomat qilib, **ishrat** so'zini haqiqiy ma'noda ishlatib, o'sha o'rinda **"ishrat qilish"**, **"ishrat iyodat qilish"** so'zlariga tasavvufiy ma'no yuklamagan.

Oshiqning maqsadga — Haqqa yetishishi uchun tinmay bilimini oshirib borishi, ma'rifatga erishmog'i lozim bo'ladi. Buning uchun esa, ko'ngil, aql va hushning yakdilligini ta'minlash darkor bo'ladi. Zero, ko'ngil ishqqa boshlovchi rahnamodir. Lekin, ushbu rahnamoning yolg'iz o'zi oshiqning maqsadiga yetishi uchun kifoya emas. Ko'ngil istaklari ko'pincha aql va hushning qarashlariga mos kelmaydi. Shu bois, maqsad sari yaqinlashish uchun yakdillik zarurdir. Shoir bu boradagi qarashlarini **"Muntaxab ut-voqeot"** tarkibidagi ****"Hikoyati manzuma"****da o'ziga xos tarzda izhor qilgan. Manzuma sababi nazm tarzidagi uch baytdan so'ng:

Qilay endi hikoyat sori og'oz,
Etay aql ila hushimni damsoz, —

deydi va ko'ngilning tan qal'asidan chiqib ishq sahrosi tomonga yo'l olganligi, aql va hush uni qidirib yo'lga tushganligini aytadi. Ko'ngilning tan shahridan ishq sahrosiga qarab yo'l olganligi yozilgandan keyin, shoir uning qay ahvolda zoru sargardon kezib yurganligini aytadi. Ko'ngilni qidirib ishq sahrosi tomon yo'lga tushgan aql bilan hushga tafakkur, xayol, xirad, andisha, idrok, iqbol, fahmu donish, fikrat ko'makchilik qiladi. Ular birgalikda aql bilan hushni yo'llarda uchrashi mumkin bo'lgan xavf-u xatardan ogoh qilib turadi. Nihoyat, ikkisi daryo, dengiz va ko'p yerlardan o'tib bir yerga yetadilar. Muallif u yerni quyidagicha tasvirlagan:

Ko'rindi bir biyoboni baloxez,
Erur boshdin ayoqi otashangez.
Havosida tamug' o'tidin afzun,
Basui zaqqum, yo'qsa jigarxun.
Shajarlal aqdin bo'lmish sarosar,
Samar bo'lmish anga dardu balo-sar.
Bilindi — ishq vodiysidur ul,
Onga tushgan bo'lur bir lahzada kul.

Shundan so'ng ikkala hamroh vodiya bir gumbazni ko'radilar. U xuddi oh o'tining dudidek. Gumbazning ichiga kirib, ko'ngilni mana bu holatda ko'radilar: boshdin ayog'i uryonu larzon, sabru qarori ketgan, inisi g'am, yori qayg'u, mulozimi g'ussa, mehnat tuni unga rohat, boshiga alamdand toj, unga dardu g'amdan ziynat, jafovu javrdin taomi, sharobi nobga g'ussadan jom.

Ikki hamroh ko'ngilni bunday holatda ko'rib, nima uchun ularni tashlab ketganligining sababini so'rganlarida, ko'ngil ishqqa mubtalo bo'lganligini aytadi. Ishq vodiysida boshidan kechirganlarini izhor qilib, yolg'izlikda qiyinchiliklarga duchor bo'lganini aytadi va **"agar sizlar menga yordam bersangiz, murodimga yetar edim"**, deydi. Keyin ular birlashib ishq vodiysi mushkulotlarini bartaraf etishga ahdlashadilar va shundan so'ng katta to'yu tantana bo'ladi:

Nechun kim barchasi chun jam' bo'ldi,
Mening jomi umidim ayshg'a to'ldi.
Bu yanglig' ijtimoi' maqsudim erdi,

Bu lahza maqsudimni Tangri berdi.

Yuqorida keltirilganidek, shoirning fikricha, ishqqa yetishish uchun ko'ngilning xohish-istagi yetarli emas. Chunki, bu yo'lda ko'plab xavf-u xatar, g'am-anduhlar mavjud. Ularni aql va hush kabi sadoqatli ko'makchilarsiz yengish mushkul. Bulardan keyin Komyob ishqdan maqsad, unga yetish yo'lidagi ko'ngil, aql va hush yakdilligiga erishmoqdan murodni mana bunday xulosa bilan yakunlaydi:

G'araz, ma'nini bilmak — Haqni topmoq,

Kerak ham shug'li zardin ko'zni yopmoq.

Nasib o'lsa sanga gar topmoq oni,

Ikki dunyoda ham topg'ung jinoni.

Xullas, Komyobning tasavvufiy mavzudagi asarlarining asosiy qismini oshiqona mavzu tashkil etadi. Ularda shoir Allohga oshiqlik, uning visoliga yetishish istaklarini tarannum etadi. Buning uchun u an'anaviy tasavvufiy istilohlardan foydalangan. Shoirning tasavvufiy mavzudagi she'rlari tadqiqi uning yassaviya tariqati g'oyalaridan bahra olganligini ko'rsatadi. Ayni chog'da, boshqa tariqat vakillari asarlarida qo'llangan bayon uslubi va mavzulardan ham ta'sirlangani ma'lum bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tarroh Bobojon. Xorazm navozandalari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994.
2. Rahim D., Matrasul Sh. Feruz-shoh va shoir qismati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
3. Safiy Ali. Rashahoti ayn ul-hayot. – O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. – 33-raqamli qo'lyozma.
4. Komyob. Muntaxab ul-voqeot. – O'zR FA Sharqshunoslik instituti. – Inv. 3730/II.
5. Komyob. Devon. – O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi. – Qo'lyozma. – Saqlanish raqami 1005. – 62 varaq.
6. Haqqulov I. She'riyat – ruhiy munosabat. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989.
7. Navoiy Alisher. Badoe' ul-bidoya. – O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi. – Inv. 111.